O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI ZOONIM KOMPONENTLI FRAZEMALAR TAHLILI

Musurmankulova Shaxribon Gulmurodovna
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v/b.
E-mail: shmusurmankulova83@gmail.com
ORCID ID: 0000-0001-5149-4029

Annotatsiya: Maqolada frazemalar va ularning mazmuni, o‘zbek va turk tillaridagi frazemalarning faol yadro komponentiga ko‘ra guruhlanishi, frazemalarda har bir xalqning urf-odati, qadriyati, an’analari va dunyoqarashlari aks etishi, ularning shakllanishida geografik joylashuvlarning namoyon bo‘lishi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tiladi. Maqolada turli komponentli frazemalarni tahlil qilgan holda, o‘zbek va turk tillaridagi zoonim komponentli frazemalar alohida tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: frazema, ibora, faol yadro, zoonim komponent, o‘zbek tili frazemalari, turk tili frazemalari.

Ma’lum bir xalqning urf-odatlari, qadriyatlari, dunyoqarashi, fikrlash doirasi va yashash sharoitlari haqida ma’lumot beruvchi leksik birliklar tarkibiga frazemalar taalluqlidir. Frazemalar so‘z birikmasi va gap shakliga ega bo‘lgan, ma’nosi bir so‘zni taqazo qiladigan semantik birliklardir. Frazemalarni keng va tor ma’noda tushunish farqlanadi. Keng

ma’nodagi frazeologik birliklar tarkibiga frazema bilan birgalikda maqol, matal, hikmatli so‘zlar ham kiritiladi. Tor ma’noda esa faqat frazemalar tushuniladi.

Frazemalarni komponentlarga ajratishda ot, fe’l komponentli frazemalar kabi turlarga ajratishadi. Ammo o‘zbek va turk tillaridagi frazemalarni ot tarkibli, fe’l tarkibli tarzida guruhlash nisbiydir. Chunki frazeologik birliklarning har biri tarkibida ot leksema ishtirok etadi. Shu bois o‘zbek va turk tillaridagi frazemalar faol yadro komponentiga ko‘ra quyidagicha guruhlandi:

1. Soma tarkibli frazemalar;
2. Zoonim tarkibli frazemalar;
3. Gastronim tarkibli frazemalar;
4. Kiyim-kechak tarkibli frazemalar.

Soma tarkibli frazemalar dunyo tillarida eng katta guruhni o‘z ichiga oluvchi lug‘aviy birliklar hisoblanadi. So‘z birikmasi ko‘rinishidagi frazemalar soma komponentining turli turkumdagi so‘zlar bilan birikuvidan hosil bo‘lgan. Soma komponentning aksariyat o‘rinda fe’l leksema bilan birikishdan hosil bo‘lishi kuzatiladi.

Sh.Usmonova o‘z tadqiqotida o‘zbek va turk tillaridagi somatik frazeologizmlarni aniq raqamlar orqali beradiki, unga ko‘ra o‘zbek tilida 1800 ta somatik ibora bo‘lsa, turk tilida 1700 ta somatik ibora borligini aytib o‘tgan. Va bu frazeologizmlarni ifodalashda o‘zbek tilida 97 ta soma, turk tilida 71 ta soma qatnashganligini ta’kidlaydi [4, 13].

Soma yadroli frazemalarning o‘zbek tilida ham, turk tilida ham nisbatan ko‘p miqdorni tashkil etishi aniqlandi.

O‘zbek tilida bo‘lgani kabi turk tili ham iboralarga boy til hisoblanadi va badiiy uslub bilan birga og‘zaki so‘zlashuv uslubida ham iboralardan keng foydalaniladi.

O‘zbek va turk tillarida taom va kiyim-kechak nomlari ishtirok etgan frazemalar ham talaygina. Ayrim frazemalarda bu birliklar har ikki tilda barqaror birikmalar semantikasining farqli ifodalanishini namoyon etadi.

Xamirdan qil sug‘urganday [3, 380] / *çorap söküğü gibi* [1, 575]. O‘zbek tilida xamirdan qil sug‘urganday frazemasi “osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz” degan ma’nolarni ifodalaydi: *Achchiq sho‘rva ichib, ko‘rpaga o‘ralib yotsangiz, chunonam bir terlaysizki, dardingiz xamirdan qil sug‘urganday chiqib ketadi.* S.Ahmad. Hukm.

Turk tilida ayni ma’nolarni ifodalash uchun *Çorap söküğü gibi gitmek* “Paypoq choki kabi ketmoq”/ *Tereyağından kıl çeker gibi* “Sariyog‘dan qil sug‘urgan kabi” frazemalari ishlatiladi. *Başlayan bir işten sonra ona ve birbirine bağlı birçok iş arka arkaya ve kolaylıkla sürüp gitmek* / *Kimseye zarar vermeden, çok kolaylıkla.* “Boshlangan bir ishdan so‘ng unga bog‘liq ishlar birin-sirin va oson bitadi/ Hech kimga zarar yetkazmasdan, oson, silliq”.

O‘zbek tilida *bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber* maqoli mavjud. Ya’ni, kichik bo‘lsa ham yaxshilik ko‘rgan insonni, uning qilgan yaxshiligini hech qachon unutmaslik kerak. Shu mazmunni ifodalash uchun *non-tuz haqqi* frazemasini qo‘llaymiz. Qaysi millat vakili bo‘lmasin insoniylik yuzasidan yaxshilikni hech qachon unutmaydilar. O‘zbek va turk xalqi ham non, tuz haqqini unutmaydigan millat hisoblanishadi.

Turk tilida *tuz ekmek hakkı* frazemasi mavjud. Sofrasında yemek yediği ve iyiliklerini gördüğü kimsenin kendisi üzerinde bulunduğu kabul edilen hak, duygusal borç. Shu bilan birga turk xalqi qahvalari bilan ham mashhurdir. Mehmonning hurmati sifatida, albatta, qahva ikrom etiladi. Turk tilida İyilik küçük de olsa unutulmaz (yaxshilik kichik bo‘lsa ham unutilmaydi) mazmunni ifodalovchi *bir fincan kahvenin kirk yil hatırı vardır* [5, 16] iborasi ham qo‘llaniladi (bir finjon qahvaning qirq yil hurmati bor).

Kiyim kechak nomi bilan bog‘liq *to‘nini teskari kiyib olmoq*/ *Pabucu ters giydirmek frazemalari mavjud.*

O‘zbek *tilida to‘n(i)ni teskari kiyib olmoq* frazemasi “o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq” ma’nosini bildiradi: *Bir majlisda Bekniyoz uni: “Zanglab qolyapsiz, Boqijon aka”,– deb tanqid qildi. Shu bo‘ldi-yu, Boqijon aka to‘nini teskari kiyib oldi*. Varianti: to‘n(i)ni ters kiyib olmoq (kam ishlatiladi). Turk tilida *Pabucu ters giydirmek* “oyoq kiyimini ters kiydirmoq” /*külahı ters giydirmek”* “bosh kiyimni teskari kiydirmoq” frazemalari bilan ifodalanadi. *Eksik olma çocuğum... Bilirim ama, onlar şeytana külahını ters giydirirler [6, 99]*. O‘zbek madaniyatida g‘azablanish, jahlning chiqishi ust kiyim (*to‘n*) orqali aks ettirilgan bo‘lsa, turk madaniyatida bosh kiyim (*külah*) va oyoq (*pabucu*) kiyimi yordamida aks ettiriladi.

Do‘ppi(si)ni osmonga otmoq kim [o‘zining] juda xursand bo‘lmoq, quvonmoq. Varianti: do‘ppi(si)ni osmonga irg‘itmoq; do‘ppi(si)ni osmonga tashlamoq. *Sizni qarang, men “to‘rt” olsam, do‘ppimni osmonga otgan bo‘lardim!* O.Yoqubov. Muqaddas.

Külahını (fesini) havaya atmak. Çok sevinmek. Barcha kiyim-kechaklarga hurmat ko‘rsatganimiz holda, bosh kiyim oyoq ostida turmaslik kerakligi doimo kattalar tomonidan eslatib turiladi. Har ikkala tilda ham xursandchilik o‘zi yuqorida bo‘lgan bosh kiyimning yana ham yuqoriga ko‘tarilishi bilan izohlangan.

Hayvon va hayvon ta’na a’zolari nomlari bilan ifodalanadigan frazemalarni zoonim komponentli frazemalar tarkibida o‘rganamiz. “Zoonim komponentli matnlarni o‘rganish turli xalqlar madaniy xususiyatlari bilan tanishish imkonini beradi. Shuningdek, bu jarayon hozirda mavud bo‘lmagan hayvonlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish, madaniyatlar mushtarakligi yoki farqli jihatlarini aniqlash imkoniyatini ham yaratadi” [7, 12]. Chuqur tadqiq qilinadigan bo‘lsa, zoonim tarkibli frazemalarni ham mayda guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Masalan, yirtqich hayvonlar, uy hayvonlari, sudralib yuruvchilar, qushlar, baliqlar va hokazo. Bunday frazemalar o‘zbek tilida ham turk tilida ham salmoqli miqdorni egallaydi. Har ikkala tilda ham zoonim yadroli frazemalar insonlarning fe’l-atvori, xatti-harakati, dunyoqarashlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Oralar(i)dan ola mushuk o‘tdi. Varianti: oralar(i)dan qora mushuk o‘tdi; o‘rtalar(i)dan ola mushuk o‘tdi. Sinonimi: oraga sovuqchilik tushdi; oraga sovuqchilik tushirmoq; oralar(i)ga sovuqchilik solmoq. Kimlarning o‘zaro normal munosabati yomonlashdi.

Aralarından kara kedi geçmek (aralarına kara kedi girmek) iki dostun arasına soğukluk girmek; iki dost birbirine gücenmek, krş. “Araya söğukluk girmek”. Iboralardan guvohi bo‘lyapmizki, har ikki xalq tushunchasida mushuk orani buzuvchi, xayrsiz hayvon sifadida tavsiflangan.

“O‘zini ko‘rmaganga, bilmaganga solmoq” holati har ikki tilda ham bir xil shaklda ifodalanadi: o‘zbek tilida: *Tuya ko‘rdingmi–yo‘q. Iloji bo‘lsa, yamatganingizni aytmang, koyib-netib yurmasin tag‘in. Tuya ko‘rdingmi-yo‘q, vassalom.* Oybek. Qutlug‘ qon.

Turk tilida: *Deve gördün mü! – Neden ölsün (Ne bilirim ne gördüm, deveyi neden ölsün*). *Şu iş üzerine bir şey biliyor musun, tanıklık eder misin diye sorsalar, tanıklık etmek şöyle dursun, böyle bir şeyin söz konusu olmasına karşı bulunduğumu söylerim.–“Deve gördün mü? – Neden ölsün”. “*Tuya ko‘rding-mi? Bilmayman (nima ko‘rganimni bilmayman, tuyani qayerdan bilay*?).* Shu ish yuzasidan bilasanmi, guvohlik berasanmi, deb so‘rasalar, guvohlik berish u yoqda tursin, bu haqida so‘z bo‘lishiga qarshiman, deyman”. Ya’ni har ikki tilda ko‘rgan, bilgan ma’lumotini bilmayman, ko‘rmadim deyish mumkin, hatto tuya kabi aniq, ravshan ko‘rinib tursa ham.

Zoonim yadroli frazemalarda ham o‘zbek va turk madaniyatida o‘xshashlik ko‘p kuzatiladi. Ammo turk xalqining yevropa turmush tarziga yaqin ijtimoiy muhiti, geografik joylashuvi farqli frazemalarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Masalan, o‘zbek tilida *Tuyaning dumi yerga yetganda* frazemasi “hech qachon”, mumkin bo‘lmagan holatga, voqelikka,

voqea-hodisaga nisabatan ishlatiladi*: Bu suvdan bizga tuyaning dumi yerga yetganda tegadi,– dedi u.* M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.

Turk tilida bu holat *Balık kavağa (kurbağa ağaca) çıkınca* “baliq terakka, qurbaqa daraxtga chiqquncha” frazemasi bilan ifodalanadi. *Baliq* va *qurbaqa* zoonimlarining frazema tarkibida kelishi turk tili egalarining yashash muhitidagi suv havzalarining ko‘pligi bilan bog‘liq. Frazemalardagi *tuya* va *baliq* zoonimlari mantiqiy zidlikni anglatadi: *tuya* til egasi ongida quruqlik, sahro bilan aloqador manzarani namoyon qilsa, *baliq* suvlik haqidagi tasavvurni uyg‘otadi. *Qurbaqa* zoonimi ham quruqlik, ham *suvlik* bilan bog‘liq manzarani aks ettiradi.

Qanoti ostiga olmoq: kimgadir homiylik qilmoq.

Kanadı altına almak: Korumak, gözetmek, himayesi altına almak.

Ba’zi frazemalarda hayvon tanasi a’zolari ko‘chma ma’nodagi semantikani ifodalashga xizmat qilgan: o‘zbek tilida *tuyog‘(i)ni shiqillatmoq,* “jo‘nab qolmoq”, “ketmoq” ma’nolarini anglatadi: *“Xo‘p anoyisini topibsan-da! Tuyog‘ingni shiqillatib qol!”- dedi teskari qarab Ahmad zarda bilan.* Varianti: arava(si)ni tortmoq. Turk tilida bu ma’no *kuyruğ* “dum” yadroli frazema orqali ifodalanadi: *Çekiver (çek) kuyruğunu. Ondan artık hayır gelmez* (Aşağılanan kişi için). “Dumingni tort. Endi undan yaxshilik kutib bo‘lmaydi (tahqirlash ma’nosini ifodalaydi). O‘zbek tilida “dumini tug” frazemasi ishlatiladi. *Tuyoq*, *kuyruğ* “dum” insonga nisbatan qo‘llanganda adresantning adresatga nisbatan salbiy munosabatini ifodalaydi.

Arining iniga cho‘p tiqmoq. Varianti: arining inini qo‘zg‘amoq, arining uyasiga tegmoq, arining uyasiga cho‘p tiqmoq. *Kim* janjalni qo‘zg‘ab qo‘ymoq, janjal chiqishiga sabab bo‘lmoq. *Yuqorida o‘tirgan brigadirning gapi arining iniga cho‘p tiqqandek ola-g‘ovurga sabab bo‘ldi.* Mushtum.

Arinin yuvasina (inine) çöp dürtmek. Tehlikeli kişiyi İncitip kışkırtmak: onun kendisine saldırmasına yol açmak

Burgaga achchiq qilib, ko‘rpani kuydirmoq. [Kim] arzimagan narsani deb, jahl ustida nojo‘ya, zararli ishni qilib qo‘ymoq. *O‘z jiyaningiz kuyganidan gapirgandir. Burgaga achchiq qilib, ko‘rpani kuydirish yaxshi emas.*

Bir pire için yorgan yakmak (pire için yorgan yakmak)/ papaza kizip oruç yemek. Önemsiz bir istek uğruna ya da küçük bir zarardan kurtulmak için çok büyük bir zararı göze almak/ bkz. “Gâvura kızıp oruç yemek”. *Avrupa uygarlığını birbirine karıştırmamalıyız. Papaza kızıp oruç bozulmaz. Türklerin yüzü Orta Asya'dan beri batıya dönüktür.*

Hol(i)ga maymunlar yig‘laydi. Varianti: ahvol(i)ga maymunlar yig‘laydi. *Kimning* o‘zi sabab bo‘lgani holda o‘ta og‘ir, achinarli ahvolga tushib qolmoq. *Qachongacha men sening eringni poylayman? Kerak bo‘lsa, o‘zing qara!.. Shu ahvoling bo‘lsa, mendan keyin holingga maymunlar yig‘laydi.* A. Qahhor. Sarob.

Hâline köpekler gülüyor: tkz. Çok kötü bir duruma düşenler için kullanılır. Kimningdir juda achinarli holga tushishi o‘zbek millati dunyoqarashida maymunning yig‘lashi, turk tilida esa itning kulishi orqali ifodalangan.

It-mushuk. Dushman. *Shundan so‘ng aholining bir-birlari bilan it-mushuk emas, balki og‘a-ini ekanliklari, qadrdonliklari oydek ravshanlashibdi.* Sh.Bo‘tayev. Haykal

Kedi ile köpek gibi. Birbirleriyle geçinemeyen, anlaşamayan kimseler için söylenir. Umuman, hayot falsafasida it va mushuk doimo bir-biriga qarshi, biri biriga dushman hisoblanishadi. Bu o‘xshatish insonlar orasidagi kelishmovchilik munosabatiga ham juda mos keladi.

Qush uchsa-qanot(i), odam yursa-oyog‘(i) kuyadi. Aslo chidab bo‘lmaydigan darajada issiq, jazirama. *Qush uchsa-qanoti, odam yursa-oyog‘i kuyadi bizning qirlarda.*

Kuş uçmaz, kervan geçmez. Kimsenin uğramadığı ıssız, sapa, sarp yer. *Maarif Müdürü'nün sözleri üzerine şık bir Avrupa köyü gibi görmeye başladığım Zeyniler'e gelince, dağlar arasında kuş uçmaz, kervan geçmez bir yermiş! Bir seneden beri boş olduğu halde en düşkün muallimler bile oraya gitmeye yanaşmıyorlar mış.*

O‘zbek tilidagi barqaror birikmada frazeologik ma’no qush va odamning harakat imkoniyatlari orqali aks ettirilgan. Turk tilida qush va karvon harakatiga asoslanilgan. O‘zbek tilidagi frazemada umumiy tabiiy-ijtimoiy voqelik, turk tilida ijtimoiy-iqtisodiy, buyuk ipak yo‘liga aloqador voqelik aks etgan.

Sichqonning ini ming tanga bo‘ldi. Kimga – sichqonning inini ming tanga qilib yubormoq varianti: sichqon ini ming tanga bo‘lib ketdi (oz ishlatiladi). *Kim kimga* qochib qutulgani joy topolmay qolmoq. *Shu vaqt deng otam birdan “hay-hay”lab kelib qoldilar-ku; Rahimvoyga sichqonning ini ming tanga bo‘ldi.* H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

Siçan deliği bin akçe. Kaçıp saklanacak yer yok.

Ho‘kizning qulog‘iga tanbur chertmoq. Varianti: qulog‘(i)ga tanbur chertmoq *kim kimning. Kim* gap uqtirishga behuda urinmoq. *“Kimga depti xo‘jayin?” - hayron bo‘lib so‘radi Gulsumbibi. “Ho‘kizning qulog‘iga tanbur cherttimmi, nodon xotin! - qiziqib ketdi Yormat. - Kimga bo‘lar edi, boy otam o‘ziga so‘rayapti”.* Oybek. Qutlug‘ qon

Ayıya kaval çalmak. Anlayışsız bir kimseye bir şey anlatmaya çalışmak. Har ikkala xalq iborasida ham qo‘pol, beg‘am hayvonlar tanlanganki, gap uqtirganing bilan foydasi yo‘q, degan mazmun aglashiladi.

Ikki qardosh til, o‘zbek va turk tillaridagi zoonim tarkibli frazemalarni o‘rganish jarayonida bir hayvon nomi bilan bog‘liq frazemada har ikki tilda bir xil mazmun ifoda etishi bilan birga, bir mazmun turli hayvon nomlari orqali ifoda etishini ham kuzatdik. Bunda so‘zlarning denotativ va konnotativ ma’no anglatib kelishini tahlil qilish lozim. O‘zbek va turk tillaridagi somatik frazemalarni tadqiq qilgan Sh.Usmonova “Bizningcha, somatik frazeologizmlar keng tushunilishi kerak. Agar hayvon tana a’zolarining nomlari kishilarning xatti-harakatlarini ifodalaydigan iboralarni tashkil toptirsa, u holda bunday iboralarni ham somatik frazeologizmlar tarkibiga kiritish lozim. Jumladan, *dumini tugmoq, dumini tutqizmaslik, dumi xurjunda, tuyog‘ini shiqillatmoq, shoxi sindi* singari frazemalar kishilarni tavsiflashga xizmat qilar ekan, ularni somatik frazeologizmlar qatoriga kiritmaslik asossizdir” [4, 11-12-b], -deya ta’kidlaydi. Biz esa, hayvon va hayvon tana a’zolari qismi orqali ifodalangan frazemalarni zoonim tarkibli frazemalarda izohlashni ma’qul deb topdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksoy Ö.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, – Ankara: Türk dil kurumu, 1984. – 575 s.
2. Rahmatullayev Sh. va boshqalar. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati.–Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 676 b.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 380 б.
4. Усмонова Ш. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар. Филол. фан. номз. дисс. –Тошкент, 1998. – 162 б.
5. Fisun Özgenç. Türkçe'de deyimler. –Istanbul: Akvaryum, 2005. – 77 s.
6. Reşat Nurı Guntekin, Acımak, 29. Baskı, Inkılap kitabevı Yayın.